



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari

8сон (5-jild)

2025

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 8 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy

kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Baxranov Sherzod*

O'ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ  
MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O'RNI ..... 10-16

*Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna*

Milliy Hunarmandchilik: Usta-Shogird Munosabatlarning  
Transformatzion Jaryonlari ..... 17-21

*Sattarova Marhabo Mamatovna*

O'zbekistonda Millatlararo Tolerantlik va uning madaniy-siyosiy  
Jaryonlariga ta'siri ..... 22-30

*Raxmatov Mirjon*

Buxoro viloyatida bojxona tizimining shakllanishi tarixidan ..... 31-38

*To'xtasinov Mira'zam*

Somoniylar davlati: harbiy islohotlar va boshqaruv strategiyalari ..... 39-42

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Kuliboyev Azamat Shonazarovich*

DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 43-48

*Azgarov Abdumutalib*

Internet-marketingning umumiyoq ovqatlanish korxonalarida  
qo'llanilishi holati tahlili ..... 49-56

*Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda*

Impact of industrial policy on the investment climate:  
international experience ..... 57-60

*Otabekov Javdod*

GO'SHT yetishtirish tizimini raqamlashtirish va "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI"  
imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'nalishlari ..... 61-68

*Navruzov Dilshod Ismatullayevich*

Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimini  
takomillashtirish orqali investitsion jozibadorlikni ta'minlash ..... 69-74

*Uralov Temur Boxodir o'g'li*

ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI HUJJATLASHTIRISH  
VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... 75-81

*Samandarov Og'abek*

ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ARDL  
modelining ahamiyati ..... 82-86

## **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Yuldashev Rustam Daniyorovich</i>	
YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI .....	87-93
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i>	
ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L .....	94-98
<i>Berdikulova Surayyo Aslamovna</i>	
IJTIMOIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI .....	99-104
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i>	
ZAMONAVIY O'ZBEKİSTON JAMIYATI SHAROİTLARIDA TA'LIM MADANIYATI .....	105-113
<i>Yarbaev Xasan Xazratqulovich</i>	
JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH: MILLIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL .....	114-118
<i>Maxsudjonov Kamronjon</i>	
MA'RIFIY TASHKIOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIY MADANIYATIGA TA'SIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI .....	119-123
<i>Qo'chqarov Oybek G'ulomovich</i>	
INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSİYASI: IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV .....	124-128
<i>Otaqulov Elyor Madiyorovich</i>	
EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI .....	129-136
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i>	
TUSHUNCHА USTIDA MANTIQIY AMALLAR .....	137-141

## **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

<i>Niyazov Ravshan Turakulovich</i>	
SKOTT TUROVNING "AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI" ROMANIDA DIALOGLAR XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI .....	142-148
<i>Yunusova Xilola Ravshan qizi</i>	
KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O'ZBEK TILIDAGI "V+(I)B YURA TURMOQ" ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA .....	149-154
<i>Absalamova Gulmira Sharifovna</i>	
LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIY TERMINLARNING NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA .....	155-158
<i>Dadajanova Aziza Karimullayevna</i>	
THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION: A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE .....	159-170
<i>Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna</i>	
YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI RAMZIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA) ERTAGI MISOLIDA .....	171-175
<i>Babajanova Iqbol Salomaddinovna</i>	
SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI .....	176-180

*To'xtayeva Sarvinoz*

DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI ..... 181-184

*Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi*

TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM  
MANBALARI QIYOSI ..... 185-189

*Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna*

CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING  
IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY .... 190-195

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*O'rinboyev Rustamjon*

A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES  
OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA ..... 196-206

*Uzakova Go'zal Sharipovna*

YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI ..... 207-212

*G'ofurova Dilafruz*

AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING  
KRIMINALISTIK TAJSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR ..... 213-218

*Komilov Avazbek Bokijonovich*

PROKUROR TAQDIMMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI  
BARTARAF ETISH MASALALARI ..... 219-223

*Juraeva Asal*

OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN ..... 224-228

*Ходжаева Ширин*

ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ  
СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ ..... 229-239

*Imomniyozov Doniyorbek*

SUN'YIY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK:  
IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILIY YONDASHUVLAR ..... 240-250

*Asadov Shahriddin Faxriddinovich*

XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI:  
SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN ..... 251-254

*Суннатиллаева Сарвиноз*

АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И  
КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА ..... 255-262

*Anarbayev Eldor*

KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ..... 263-269

*Ibrohimov Azimjon*

KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI:  
XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK ..... 270-278

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Qurbanov G'ulomjon G'afurovich*

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI,  
SHAKLLARI VA VOSITALARI ..... 279-285

<i>Safarova Nigora Nasilloyevna</i>	
TRANSFOMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI	
VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI .....	286-293
<i>Muxammadjonov Muslimbek</i>	
OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ...	294-302
<i>Khabibullaeva Dilshoda</i>	
FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING	
CLASSROOMS IN UZBEKISTAN .....	303-309
<i>Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi</i>	
INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARINI	
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI .....	310-314
<i>Hamidov Sherali Shirinovich</i>	
BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY	
TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI .....	315-320
<i>Sattoriy Shohruh</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT	
QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	321-325
<i>Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna</i>	
TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA	
KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI .....	326-331
<i>Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna</i>	
"NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOIY	
HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING	
TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI .....	332-336
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i>	
TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE	
"DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE	
"INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT .....	337-341

**Received:** 20 July 2025**Accepted:** 5 August 2025**Published:** 10 August 2025*Article / Original Paper***ISSUES RELATED TO THE PROSECUTOR'S SUBMISSION AND WAYS TO SOLVE THEM****Komilov Avazbek Bokijonovich**The Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan,  
Head of Department, PhD in Law, Associate Professor

**Abstract.** This article is devoted to the issues of solving problems related to the application of the prosecutor's submission in the practice of supervising the execution of laws. The author discusses a number of systemic problems associated with the prosecutor's submission used in the direction of supervising the execution of laws. These include: indicating in the submissions that the execution of documents that are not regulatory is checked, submitting presentations to a body (an official) that does not have the authority to eliminate the violation of the law, failure to properly monitor the execution of the submitted presentations, failure to ensure the participation of prosecutor's office employees in the discussion of submission. The author has developed scientifically based proposals to solve these problems.

**Keywords:** prosecutor, acts of prosecutorial supervision, prosecutor's submission, violation of the law, reason, condition.

**PROKUROR TAQDIMMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI****Komilov Avazbek Bokijonovich,**O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi  
kafedra boshlig'i, yu.f.f.d.(PhD), dotsent  
E-mail: [komilov02011985@gmail.com](mailto:komilov02011985@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqola qonunlar ijrosi ustidan nazorat amaliyotida prokuror taqdimnomasini qo'llash bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish masalalariga bag'ishlangan. Maqloda muallif qonunlar ijrosi ustidan nazorat yo'nalishida qo'llaniladigan prokuror taqdimnomasi bilan bog'liq tizimli muammolar haqida so'z yuritadi. Ularga: taqdimnomalarda normativ hisoblanmaydigan hujjatlar ijrosi tekshirilganligini ko'rsatish, taqdimnomalarni qonun buzilishini bartaraf etish vakolatiga ega bo'limgan organga (mansabdar shaxs) kiritish, kiritilgan taqdimnomalar ijrosini lozim darajada nazorat qilmaslik, taqdimnomalar muhokamasida prokuratura xodimlarining ishtiroki ta'minlanmasligi kabilarni kiritadi. Muallif tomonidan ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** prokuror, prokuror nazorati hujjatlari, prokuror taqdimnomasi, qonun buzilishi, sabab, shart-sharoit.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N34>

O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuning 40-moddasiga asosan, prokuror qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnomani qonun buzilishini bartaraf etish vakolatlariga ega bo'lgan organga yoki mansabdar shaxsga kiritadi. Taqdimnomalar darhol ko'rib chiqilishi va ko'rilib chora-tadbirlar to'g'risida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinishi lozim [1].

Taqdimnoma qonunlar ijrosi yuzasidan o'tkaziladigan prokuror tekshiruvlari yakuniga ko'ra amaliyotda nisbatan ko'proq murojaat qilinadigan nazorat hujjati sanaladi. Xususan, prokuratura organlari tomonidan 2024-yilda qonunlar ijrosi ustidan nazorat yo'nalishida qo'llanilgan jami 133 ming ortiq prokuror nazorati hujjatlarining 19160 tasi yoki 14 foizini taqdimnoma tashkil etgan.

Biroq, tadqiqot jarayonida prokuror taqdimnomalarini o'rganish shundan dalolat berdiki, taqdimnomani tayyorlash, kiritish va uni ijrosini nazorat qilish borasida ko'plab tizimli kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. O'z navbatida, ushbu tizimli xato va kamchiliklar kiritilayotgan taqdimnomalarning sifati, samaradorligi va ta'sirchanligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Chunonchi, taqdimnoma nazorat hujjati bilan bog'liq yo'l qo'yilayotgan xato-kamchiliklarga quyidagilarni kiritish mumkin bo'ladi:

*birinchidan*, taqdimnomalarda o'z kuchini yo'qotgan normativ — huquqiy hujjatlar ijrosi tekshirilganligi ko'rsatilgan;

*ikkinchidan*, taqdimnomalarda prokurorlar tomonidan tekshirilayotgan sohaga doir munosabatlarni tartibga soluvchi aniq normativ — huquqiy hujjatlarni emas, balki normativ hisoblanmaydigan hujjatlar, jumladan, korxona, muassasa va tashkilotlarning ta'sis hujjatlari yoki Bosh prokuror sohaviy buyruqlari ijrosi tekshirilganligi ko'rsatilgan;

*uchinchidan*, ba'zi hollarda taqdimnomalar qonun buzilishini bartaraf etish vakolatiga ega bo'lмаган organ yoki mansabdor shaxsga kiritilgan;

*to'rtinchidan*, hisobot ko'rsatkichlarini sun'iy oshirib ko'rsatishga urinish oqibatida bir xil mazmundagi taqdimnomalarni bir necha organ yoki mansabdor shaxsga kiritish holatlari ham aniqlangan;

*beshinchidan*, ayrim holatlarda prokurorlar tomonidan kiritilgan taqdimnomalar ijrosi lozim darajada nazorat qilinmagan, ularni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha mas'ul idoralar tomonidan berilayotgan javoblarga tegishli baho berilmay, shunchaki tekshirish materialiga qo'shib qo'yish bilan cheklanilgan;

*oltinchidan*, Bosh prokurorning 12.09.2017 yildagi 140-sod buyrug'ining nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha kiritilgan taqdimnomalar muhokamasida prokuratura organlari xodimlarining ishtiroki majburiyligi haqidagi talablarga to'liq rioya qilinmagan;

*yettinchidan*, taqdimnomalarda qonunbuzilishida aybdor shaxslar aniq ko'rsatilmagan, ularning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ravshan ochib berilmagan (*ushbu kamchilik o'rganilgan taqdimnomalarning 25 foizida uchragan*);

*sakkizinchidan*, taqdimnomalarning tavsif-asoslantirish qismida prokuror talablari kuchsiz asoslantirilgan (*o'rganilgan prokuror taqdimnomalarning 20 foizida uchragan*);

*to'qqizinchidan*, taqdimnomalarning xulosa qismida prokurorning qonunbuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan talablari iltimosnoma tarzida shakllantirilib, "tegishli chora-tadbirlar qabul qilinsin" tarzidagi umumiy jumlalardan foydalanilgan, prokuror pozitsiyasi aniq ifodalanmagan (*o'rganilgan taqdimnomalarning 30 foizida uchragan*).

Shu o'rinda qayd etish o'rinaliki, amaliyotda prokuror taqdimnomasini ko'rib chiqish bilan bog'liq eng keng tarqalgan muammo shundaki, taqdimnomada ko'rsatilgan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlar bartaraf etish to'g'risidagi prokuror talablari ko'pincha haqiqatda bajarilmay bajarilmay qolmoqda[2].

Mazkur salbiy holat taqdimnomada ko'rsatilgan talablarning majburiy ijro etish kuchiga ega emasligi bilan uzviy bog'liq, nazarimizda. Bu masalada E.Islamova va I.Imanovlarning fikricha, prokuror taqdimnomasi va protestida ko'rsatilgan talablarning majburiy ijro etish kuchiga ega emasligi, tabiiyki, ularning samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli, ba'zi olimlar prokurorning qonun bilan berilgan vakolatlardan kelib chiquvchi barcha talablarining ijrosi majburiy ekanligiga oid normani "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunga kiritilishi lozimligini ta'kidlashadi [3].

Nazarimizda, ushbu muammoni keltirib chiqarayotgan yana bir sabab shundaki, aksariyat taqdimnomalarning xulosa qismida prokuror tomonidan qonunbuzarlikni bartaraf etishning aniq usuli ko'rsatilmasdan, "yo'l qo'yilgan qonun buzilishi bartaraf etilsin" yoki "aniqlangan qonun buzilishini bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rilsin" kabi umumiy mazmundagi talablar ko'rsatiladi [4].

Vaholanki, prokuror taqdimnomasi darhol ko'rib chiqilishi va ko'rib chiqilgan kundan boshlab 30 kun ichida unda ko'rsatilgan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar qabul qilinishi shart va bu prokuror tomonidan qat'iy nazorat qilinishi lozim. Ammo, amaliyotda ushbu talabga rioya etilishi ustidan nazorat lozim darajada amalga oshirilmasligi oqibatida, yuqorida kabi jiddiy kamchiliklar sodir bo'lmoqda.

Chunonchi, tadqiqot jarayonida olib borilgan o'rganishlarda Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahar prokuratura organlari tomonidan tekshirish natijalari bo'yicha kiritilgan taqdimnomalarga asosan ko'rilgan choralar ustidan yetarlicha nazorat o'rnatilmaganligi oqibatida aniqlangan qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish yuzasidan mutasaddi idoralar tomonidan chora-tadbirlar amalga oshirilmasdan qolib ketganligi aniqlangan.

Masalan, Piskent tumani prokuraturasi tomonidan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo'yicha tuman inspeksiysi va "Toza hudud" DUK faoliyatini tekshirish natijalari bo'yicha 20 dan ortiq qonunbuzarliklar, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarmaslik holatlari aniqlanib, 01.03.2019-yilda inspeksiya boshlig'i nomiga taqdimnomalar kiritilgan. Biroq, ushbu taqdimnomani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha inspeksiya tomonidan yuborilgan javob xatida xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan xodimlar intizomiy javobgarlikka tortilganligini ma'lum qilish bilan cheklanilgan. Vaholanki, taqdimnomada ko'rsatilgan qonun buzilishi holatlari bartaraf qilinmagan yoki ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilmagan.

Umuman olganda, prokuror taqdimnomasida ko'rsatilgan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi prokuror talablarining umuman yoki lozim darajada ijro etilmasligi qonuniylik ahvolining yomonlashuviga, fuqarolarning huquq hamda erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarining ta'minlanmasligiga olib keladi.

Bizningcha, yuqorida qayd etilgan muammoning yechimi sifatida "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 40-moddasiga prokuror taqdimnomasida ko'rsatilgan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi prokuror talablarining ijro etilishi majburiyligi, taqdimnomalar keling tushgan kundan boshlab bir oylik muddat ichida mazkur qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha aniq

chora-tadbirlar qabul qilinishi shart ekanligini nazarda tutuvchi norma kiritish maqsadga muvofiq bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki, bu kabi mazmundagi norma "O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 23-moddasida uchraydi. Xususan, ushbu moddaga ko'ra, davlat xavfsizlik xizmati davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga yoki mansabdor shaxslarga huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega hisoblanadi[5].

Shuningdek, xorij tajribasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, yuqoridagi mazmundagi normalar MDHga a'zo mamlakatlarning "Prokuratura to'g'risida"gi qonunlarida ko'plab uchraydi.

Misol uchun, bu kabi huquqiy normalar "Rossiya Federatsiyasi prokuraturasi to'g'risida"gi Qonuning 6-moddasi[6], "Belarus Respublikasi prokuraturasi to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasi[7], "Turkmaniston prokuraturasi to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasi[8], "Tojikiston Respublikasi prokuraturasi to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasi[9]da ham o'z aksini topgan.

Umuman olganda, nazorat amaliyotida prokuror taqdimnomasini qo'llash bilan bog'liq muammolarni o'rganish natijasiga ko'ra, prokuror nazorat amaliyoti, olimlarning qarashlari va xorijiy tajribadan (*Rossiya, Belarus, Tojikiston, Turkmaniston*) kelib chiqqan holda, prokuror taqdimnomasining sifati, samaradorligi va ta'sirchanligini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuning 40-moddasini prokuror taqdimnomasida ko'rsatilgan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi prokuror talablarining bajarilishi majburiyligi, taqdimnomada kelib tushgan kundan boshlab bir oylik muddat ichida qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar qabul qilinishi shartligini nazarda tutuvchi norma bilan to'ldirish taklif etiladi.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2025 y., 03/25/1022/0083-son.
2. Алхутова Е.Ю. Прокурорский надзор за исполнением законов об административной ответственности за правонарушения в сфере экономики: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное казенное образовательное учреждение высшего образования "Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации", 2013. – С. 165.
3. Исламова Э.Р. Проблемы реализации полномочий прокурора при осуществлении «общего надзора» // «Крымский научный вестник», №1 (7) / 2016. – С. 230-233; Иманов И.А. Система и эффективность актов прокурорского надзора в противодействии коррупции в Республике Казахстан // «Юридическая наука и правоохранительная практика», №4 (34) / 2015. – С. 193.
4. Алхутова Е.Ю. Прокурорский надзор за исполнением законов об административной ответственности за правонарушения в сфере экономики: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное казенное образовательное учреждение высшего образования "Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации", 2013. – С. 165.

5. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.02.2024 y., 03/24/909/0133-son.
6. Федеральный закон Российской Федерации «О прокуратуре Российской Федерации» // Электрон манба: [https://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_262/?ysclid=m8yr6z9f63262442322](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_262/?ysclid=m8yr6z9f63262442322). (мурожаат вақти: 01.04.2025).
7. Закон Республики Беларусь «О прокуратуре Республики Беларусь» // Электрон манба: <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=H10700220>. (мурожаат вақти: 01.04.2025).
8. Закон Туркменистана «О прокуратуре Туркменистана» (новая редакция) // Электрон манба: <https://mejlis.gov.tm/single-law/144?lang=ru>. (мурожаат вақти: 01.04.2025).
9. Конституционный Закон Республики Таджикистан «Об органах прокуратуры Республики Таджикистан» // Электрон манба: <http://www.prokuratura.tj/legislation-rus/49-the-constitutional-law-of-the-republic-of-tajikistan.html>. (мурожаат вақти: 01.04.2025).

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 8 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).